

**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.22/01.02.2022.T.144.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

ALISHEV SHERQO‘ZI ABDUMANNONOVICH

**KO‘P BOSQICHLI O‘ZGARUVCHAN PARAMETRLI OBYEKTЛАRNI
ADAPTIV BOSHQARISH ALGORITMLARI**

05.01.08 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Alishev Sherqo‘zi Abdumannonovich

Ko‘p bosqichli o‘zgaruvchan parametrli obyektlarni adaptiv boshqarish
algoritmlari3

Алишев Шерқўзи Абдуманнонович

Алгоритмы адаптивного управления многостадийными объектами с
переменными параметрами 21

Alishev Sherkuzi Abdumannonovich

Algorithms for adaptive control of multistage objects with variable
parameters.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....43

**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.22/01.02.2022.T.144.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

ALISHEV SHERQO‘ZI ABDUMANNONOVICH

**KO‘P BOSQICHLI O‘ZGARUVCHAN PARAMETRLI OBYEKT LARNI
ADAPTIV BOSHQARISH ALGORITMLARI**

**05.01.08 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va
boshqarish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/T892 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax politexnika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.polito.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar

Yusupbekov Azizbek Nodirbekovich
texnika fanlari doktori, professor

Kadirov Yorqin Baxodirovich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti huzuridagi PhD.22/01.02.2022.T.144.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «16» mart soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100095, Toshkent, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 17-uy. Tel./faks: (998-71)-246-50-92, e-mail: info@polito.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A-303 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 17-uy. Tel./ faks: (998-71)-246-50-32, e-mail: irc@polito.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «02» 03 kuni tarqatildi.
(2023 yil «02» 03 dagi 03 raqamli reyestr bayonnomasi).



J.Sh.Inoyatxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

T.R.Pulatov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash Ilmiy kotibi, (PhD), dosent.

N.E.Maxamatov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t.f.d.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ko‘p bosqichli o‘zgaruvchan parametrli obyektlar, masalan portlandsement mahsulotlarni ishlab chiqarish zavodlari iqtisodiyotni dinamik rivojlanishining muhim sohalaridan biri hisoblanib, turli tarkibli xom ashyolardan turi va xususiyatlari bo‘yicha bir-biridan farq qiluvchi portlandsement mahsulotlar ishlab chiqish, shaxtali yoki barabanli aylanma pechlarda xom ashyo qorishma (shixta)larni quritish, qizdirish, dekarbonizatsiyalash, kuydirish va sovutish texnologik jarayonlarining boshqaruvini avtomatlashtirish, optimal harorat rejimini aniqlash usullari va pechda xom ashyo kukunlarining harakat jarayonlarini boshqarish tizimlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. «Jahon sanoatidagi sement assotsiatsiyasi ma‘lumotiga ko‘ra, dunyoda sement mahsulotiga bo‘lgan talab 2020 yilda 3,78 mlrd. tonnani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021 yilga kelib 4,03 mlrd. tonnaga yetgan, ya‘ni 5,2 %ga oshgan».¹ Bu yo‘nalishda rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Xitoy, Shimoliy Amerika, Hindiston, G‘arbiy Yevropa va boshqa davlatlarda talab ortib bormoqda. Shu boisdan ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda resurs tejamkor portlandsement mahsulotlari ishlab chiqarish texnologik jarayonlarni, xom ashyoning fizik xossalari va kimyoviy tarkibiga muvofiq ravishda texnologik rejimini va pech haroratini aniqlash, ko‘p bosqichli o‘zgaruvchan parametrli obyektlarda pechda shixtani quritish, qizdirish, dekarbonizatsiyalash, kuydirish va sovutish jarayonlar ketma-ketligi boshqaruvini optimal matematik modelini ishlab chiqish, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada ko‘p bosqichli sement mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari, talablari, tamoyillari va mezonlariga asoslanib qorishmani quritish, kuydirish va sovutish jarayonlarida pech haroratini aniqlash usullarini ishlab chiqish, xom ashyo har xilligi, chiqariladigan mahsulot turiga qarab pechlarning harorati va kukunlarning harakati tezligini boshqarish usulini ishlab chiqishni ilmiy asoslash zarur bo‘lib hisoblanmoqda.

Respublikamizda turli maqsadlarga mo‘ljallangan o‘zgaruvchan parametrli obyektlarda turli tarkibli va xossalarga ega portlandsement va silikat materiallarini qayta ishlashni texnologik jarayonlarini modernizatsiyalash, pechlar ichida xom ashyo kukunlarining harorat zonalari bo‘ylab harakati jarayonlari davomida tegishli optimal harorat ko‘rsatkichlarni aniqlash va ta‘minlanishini boshqarish, qorishmalarni quritish va kuydirish jarayonlarini boshqarish usullarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, o‘zgaruvchan parametrli obyektlarda portlandsement va boshqa turdagi energiya talabgor qurilish materiallarini ishlab chiqish jarayonlarini avtomatlashtirilgan tuzilmasi, ko‘p bosqichli qorishmani kuydirish texnologik jarayonlarini modellarini, xom ashyo aralashmalarini (kukunlar) texnologik jarayonlar ketma-ket harakati davrida pech haroratini aniqlash usullarini ishlab chiqish, jarayonlarni boshqarish usullarini takomillashtirishga mo‘ljallangan ixtisoslashgan

¹<http://projectreporter.co.in/prcontentdetail.aspx?Id=5242>

matematik ta'minot va dasturlar majmuasini yaratish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevraldagi PQ-4198-son «Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-son «Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli barcha me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Ko'p bosqichli texnologik jarayon bo'lgan portlandsement mahsulotini ishlab chiqarish texnologik jarayonini avtomatlashtirish va maxsus turli sement mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha asosiy tadqiqot va innovatsiyalar asosan yirik tadqiqot markazlarida amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, Konchilik fanlari akademiyasi (Moskva), D. I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyoviy texnologiya universiteti (Moskva), Amerika beton instituti (AQSH), Xitoy konchilik universiteti (Xitoy), Markaziy qurilish universiteti (Janubiy Xitoy), Hindiston Texnologiya Instituti (Hindiston) va boshqa nufuzli oliy ta'lim muassasalarida keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

XX asrning oxirlarida olimlar portlandsement ishlab chiqarish jarayonida resurstejamkor va energiya tejamkor mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini qayd etdilar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ko'p bosqichli o'zgaruvchan parametrli obyektlarda tog'-kon, portlandsement va silikat materiallarini olishda xom ashyolarni qayta ishlash jarayonlarini boshqarish usullari va modellarini tadqiq etishga doir bir qator ilmiy va amaliy natijalar olingan. Jumladan xorijiy olimlardan Jennings H.M., Caijun Shi, Della Roy, Pavel K., Scrivener K.L., Nonat A., Vtyurin V.A., Chirkov A.S., Braun A.V., Porxalo V.A., Valerii V.Y., F.M.Li, Nasanov I.D., Puchkov L.A., Taymasov B.T., Kirillov A.H., Kirsanov P.V., Ignatyev V.B., Cherkasov D.V., Kuzmin N.G., Ilina L.V., Pirov F.S. va boshqalarning ishlarida ko'rib chiqilgan.

O'zbekistonda ko'p bosqichli o'zgaruvchan parametrli obyektlar texnologik jarayonlarini modellashtirish, adaptatsiyalash, bashoratlash, optimallashtirish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish masalalari bo'yicha Yusupbekov N.R., Igamberdiyev X.Z., G'ulomov Sh.M., Sidikov I.X., O'ljayev E., Kabulova L.B., Irismetov X.E., Atakuziyev T.A., Shipulin Y.G., Abdullayev M.M., Nazarov X.A., Sevinov J.U., Sharifov A., Iskandarova M., Talipov N.X., Tojiyev T.X., O'razov N., Toirov Z.K., Muxamedbayeva Z.A. va boshqa olimlar ko'p bosqichli ishlab chiqarish obyektlari texnologik jarayonlarini modellashtirish, optimallashtirish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini takomillashtirish usul va algoritmlarini ishlab chiqishga munosib hissa qo'shganlar.

Shu bilan birga, hozirgi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter tizimlari yordamida portlandsement qurilish materiallarini ishlab chiqarish texnologik jarayonidagi xom ashyoning fizik va kimyoviy o'zgarishlari, pech haroratining turli tarkibli va tayyor sement mahsulotlari sifat ko'rsatkichiga ta'siri masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining A5-025 - «Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda internet marketing tadqiqoti logistik boshqaruv tizimining tadbiqu» (2015-2017), I-2014-4-7 «Ishlanma va texnologiyalarni 3D formatda virtual namunalarini modellashtirishni tashkil etish va taqdimot maydonlari platformasini yaratish» (2014-2016) va I-2017-4-4-«Axborot tizimlarida ma'lumotlarga intellektual ishlov berish modellarini ishlab chiqish va joriy etish» (2017-2018) mavzularidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ko'p bosqichli o'zgaruvchan parametrli obyektlarni adaptiv boshqarish, bashoratlash modellari, algoritmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ko'p bosqichli o'zgaruvchan parametrli obyektlarni an'anaviy boshqaruv tizimi, texnologik xususiyatlari, fizik va kimyoviy o'zgarishlarini tizimli tahlillash asosida portlandsement mahsulotini ishlab chiqarish texnologik jarayonini takomillashtirish;

ko'p bosqichli o'zgaruvchan parametrli obyektlarni boshqarish va dekompozitsiyalash tamoyillari, talablari va mahsulot ko'rsatkichlarini belgilovchi informativ faktorlari asosida adaptiv boshqarish algoritmini ishlab chiqish;

ko'p bosqichli o'zgaruvchan parametrli obyektlarda portlandsement materiallarini ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish, bashoratlash, optimallashtirishning adaptiv modellari va algoritmlarini ishlab chiqish;

portlandsement va silikat materiallarini qayta ishlashda boshqaruv dasturiy majmuasini yaratish asosida pech harorat rejimini avtomatlashtirilgan tizimini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida ko'p bosqichli tog'-kon jinslaridan olinadigan portlandsement qurilish materiallarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti ko'p bosqichli tog'-kon jinslaridan olinadigan portlandsement materiallarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini, pechning harorat rejimini xom ashyoning xususiyatlariga muvofiq boshqaruv tizimini yaratish usul, model, algoritm va dasturiy majmuasi olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida optimallashtirish, bashoratlash va faktorli tahlil usullari, axborot va matematik modellashtirish, ma'lumotlarga ishlov berish usullari, texnologik jarayonlar va klassifikatsiyalash usullari, matematik statistika, qaror qabul qilish va boshqaruv usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko'p bosqichli o'zgaruvchan parametrli obyektlarni an'anaviy boshqaruv tizimi, texnologik xususiyatlari, fizik va kimyoviy o'zgarishlarini tizimli tahlillash asosida

portlandsement mahsulotini ishlab chiqarish texnologik jarayoni adaptiv boshqaruv tizimini joriy etish hisobiga takomillashtirilgan;

ko'p bosqichli o'zgaruvchan parametrli obyektlarni boshqarish va dekompozitsiyalash tamoyillari, talablari va mahsulot ko'rsatkichlarini belgilovchi informativ faktorlari asosida adaptiv boshqarish algoritmi va matematik modelini adaptatsiyalashning tuzilmaviy sxemasi ishlab chiqilgan;

ko'p bosqichli o'zgaruvchan parametrli obyektlarda portlandsement materiallarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini modellashtirish, bashoratlash, optimallashtirishning adaptiv modellari va haroratni maydon bo'yicha tarqalishi, yoqilg'i aralashmasi harorati va moddiy haroratni maydonlar bo'yicha hisoblash algoritmlari ishlab chiqilgan;

portlandsement va silikat materiallarini qayta ishlash jarayonlarini adaptiv boshqarish algoritmlari va dasturiy majmuasini yaratish asosida pech harorat rejimini nazorat qilish va boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko'p bosqichli o'zgaruvchan parametrli obyektlarda kuydirilayotgan mahsulotlarning xususiyatlari va nuqsonlarini bashorat qilish va olingan natijalarni texnologik jarayonlar parametrlarini, avariya holatlarda iqtisodiy zarar ko'rish va jarayonni nooptimal yuritilayotganini o'z vaqtida bartaraf etish tizimi yaratilgan;

portlandsement va silikat mahsulotlarni olishda xom ashyoni qayta ishlash, kuydirish jarayoni eksperimental tadqiqoti natijasida sement mahsuloti optimal tarkiblari xossalarini xususiyatlari aniqlangan, ularning statistik tahlilidan keyin mahsulotlarning xossalarini modellashtirish uchun qisqartmalar shakllantirilgan, hamda nazorat qilinuvchi texnologik o'zgaruvchilarning statistik tahlilini o'tkazish, matematik modellarga kiritish uchun omillar aniqlangan;

mahsulotlarning xususiyatlarini bashorat qilish uchun olingan namunalarning rentgen tahlili va maxsus namlikda qotgan namunalarning mustahkamligining eng kichik qiymati va namlik yutishining o'rtacha qiymati modellari olingan va modellar yaroqsiz mahsulotlarni paydo bo'lishini bashoratlashda qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi uslubiy jihatdan asoslangan amaliy hisob-kitoblar, ko'p pog'onali tahliliy tizimlarni qurishning nazariy asoslangan konsepsiyalarining qo'llanilishi, avtomatik tahlil nazariyasining sinalgan usullari va algoritmlarning ishlatilishi, nazariy va amaliy tadqiqotlarning olingan natijalari va ularning o'zaro muvofiqlashtirilganligi hisoblash eksperimentlari natijalarini umumqabul qilingan mezonlar asosida aynan berilganlar bilan qiyosiy tahlili bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko'p bosqichli o'zgaruvchan parametrli obyektlarda portlandsement va silikat materiallarini ishlab chiqarish jarayonlarini bashoratlash va adaptiv modellarini ishlab chiqish, hamda sement mahsulotlarni olishda xom ashyolarni kuydirish jarayonida pechning harorat rejimini muvofiqlashtirish usullari va algoritmlarini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

adaptiv boshqaruv masalasini shakllantirilishi, optimallik mezone tanlanishi, kuydirish maydonida harorat cheklovlari, pechga xom ashyo kukunlarini kiritish

tezligi, shuningdek, mahsulotni mustahkamligining eng kichik qiymati va namlik yutishi, qotish darajasining o'rtacha qiymati shakllantirilishi, mahsulot maxsus namlik bo'yicha mustahkamlikni taqsimlash modelidan foydalanish, harorat m

a **Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** Ko'p bosqichli o'zgaruvchan parametrli obyektlarda portlandsement va silikat materiallarini olishda ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini adaptiv boshqarish usul, matematik model, dasturiy majmua va algoritmlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

n ko'p bosqichli o'zgaruvchan parametrli obyektlarda portlandsement klinkerini ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida adaptiv boshqarish usullarini takomillashtirish, adaptiv modellari va algoritmlari "Qizilqumsement" AJ korxonasida sement mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik jarayoniga joriy etilgan ("Qizilqumsement" AJ korxonasida 15 iyun 2021 yil dalolatnomasi). Natijada portlandsement mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida texnik-iqtisodiy zararlar miqdori qisqarishiga, ya'ni yoqilg'i va elektr energiya sarf harajatlarining iqtisodiy samaradorligi 147,8 mln.so'm miqdorida tejamkorlikga erishish imkonini bergan;

h xom ashyolardan portlandsement va silikat materiallarini olishda kuydirish va sovutish texnologik jarayonlarini adaptiv boshqarish algoritmlari va dasturiy majmuasi "Turon eco cement group" AJ korxonasida sement mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik jarayoniga joriy etilgan 2021 yil 15 sentabr dalolatnomasi. Natijada portlandsement mahsulotlarni olishda qayta ishlash, axborot resurslari oqimi va boshqaruv tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish ishlab chiqarishda yoqilg'i va elektr energiya sarf harajatlarining 1,13 barobar tejamkorligiga, iqtisodiy samaradorligi 57,3 mln.so'm miqdorida tejamkorlikga erishish imkonini bergan;

o o'zgaruvchan parametrli obyektlar xom ashyolarining fizik va kimyoviy o'zgarishlarini tizimli tahlillash, portlandsement mahsulotini olishda kuydirish va sovutish jarayonini adaptiv boshqarish usuli "Olmaliq KMK" AJ Sherobod sement zavodiga joriy etilgan. ("Olmaliq KMK" AJ Sherobod sement zavodining 2019 yil 26 dekabrda 01-son dalolatnomasi). Natijada sement mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish xom ashyoning tarkibiy qismiga muvofiq xom ashyo qorishmasini kuydirish uchun sarflanayotgan issiqlik energiyasi miqdorini qisqartirish hisobiga ishlab chiqarish sof foyda miqdorini 1,22 baravarga oshirish imkonini bergan.

portlandsement klinkerini ishlab chiqarish jarayonini adaptiv modellari, algoritmlari va boshqaruv tizimini takomillashtirish usullarini xom ashyolardan portlandsement va silikat materiallarini olishda kuydirish va sovutish texnologik jarayonlariga joriy etganligi to'g'risidagi "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining 2022 yil 16 martdagi 05/15-706-sonli ma'lumotnomasi.

f **Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

l **Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan – 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarini asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, 2 tasi xorijiy va 6 tasi

t
i
r
i
s

respublika jurnallarida nashr qilingan hamda EHM lar uchun dasturiy mahsulotlarga O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan ro‘yxatdan o‘tgan 3 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurlik darajasi asoslab berilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, olingan natijalarning haqqoniyligi asoslab berilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi ro‘yxati, ishni sinash natijalari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilmasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Ko‘p bosqichli o‘zgaruvchan parametrli obyektlarni boshqarishning zamonaviy holati**» deb nomlangan birinchi bobida ko‘p bosqichli o‘zgaruvchan parametrli obyektlar (KBO‘PO) mahsulotlari, hususan, qurilish materiallari hisoblangan sement ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish tizimining hozirgi holati tahlili, ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlari, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish tizimini takomillashtirish usullari va strategiyasini aniqlashga bag‘ishlangan.

KBO‘PO jarayonlari boshqaruv obyekti sifatida bir necha o‘zaro moddiy oqimlar bilan bog‘langan bo‘limlardan iborat bo‘lib, turli tarkib va miqdor jihatdan o‘zgaruvchan kiruvchi va chiquvchi boshqaruvchi parametrlari bilan xarakterlanadi. Ishlab chiqarish korxonasi o‘zgaruvchan tarkibli xom ashyo turli xossalari fizik-kimyoviy parametrlar bilan kiradi, chiqishda esa talab etilgan mahsulot olinadi. Jarayondagi parametrlar o‘zaro murakkab bog‘lanishga ega va har bir bosqichda ma‘lum bir sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ladi. Masalan, portlandsement klinkerini ishlab chiqarish jarayoni: xom ashyoni tayyorlash, maydalash, tarkibiy me‘yorlash, qizdirish, kuydirish, sovutish, shuningdek, so‘nggi bosqich maydalash va kukunlash kabilarga bo‘linadi. Kiruvchi parametrlar jarayon holatini ifodalab tayyorlanayotgan mahsulot sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini belgilaydi. Shuningdek, jarayon faoliyatiga ta‘sir etuvchi tashqi muhitni ifodalaydi.

Ichki parametrlar jarayonning qurilmaviy tuzilma va texnologik jihatlarini ifodalaydi. Tuzilmaviy parametrlar qurilmalarini geometrik xarakteristikalarini (texnologik agregat, qurilma, xom ashyoni aralashtiruvchi agregatning diametri va balandligi) belgilaydi. Texnologik parametrlar texnologik oqim parametrlari va jarayonlarning rejim parametrlariga bo‘linadi. Texnologik parametrlarga oqim holati xossalari ifodalovchi parametrlari (xom ashyo miqdori, tarkibiy qismi, uskunalarning (pech) ichki harorati, bosimi, aralashmalarining konsentratsiyasi, zichligi) kiradi. Ko‘p bosqichli o‘zgaruvchan parametrli obyekt sifatida 1-rasm kabi ifodalanadi.

Ko'p bosqichli o'zgaruvchan parametrli obyektning kirish qismiga o'zgaruvchi vektor parametrlari $X(t)$ tashkil etuvchilari $X_1(t), X_2(t), \dots, X_k(t)$ ma'lum bir to'plamga $X, x(t) \in X$ kiradi.

Boshqaruvchi parametrlar $U(t)$ tashkil etuvchilari $U_1(t), U_2(t), \dots, U_i(t)$ komponentlar bilan belgilanib, tizimni kechish jarayonini boshqarishga xizmat qiladi. Ular tarkibiga xususan: xom ashyo sarfi, maydalanganlik darajasi, zichligi, namligi, qovushqoqligi, harorati, energiya sarfi kabi parametrlar kiradi.



1-rasm. KBO'PO jarayonining blok sxemasi

Jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tasodifiy parametrlar $V(t)$ xom ashyo xossalari, xom ashyo tarkibidagi metallar va minerallar, yopishqoqlik xususiyatlari (zarracha shakli va o'lchami), granularning yirikligi, maydalanish xususiyati, moddiy oqimning hajmi va zichligi, namlik tarkibi, boshqaruvchi parametrlarning sifati, turg'unligi, va harorati hisoblanadi. Bu parametrlar o'rnatilgan texnologik tartibni o'zgarishiga olib keladi.

KBO'PO holatini ifodalovchi vektor parametrlar $Y(t)$ quyidagi ko'rinishda ifodalanadi $Y_1(t), Y_2(t), \dots, Y_i(t)$. Bunga olingan mahsulot yoki yarim tayyor mahsulot kimyoviy tarkibi, o'lchami, miqdori va hakovolar kiradi. Bu yerda t (diskret yoki uzluksiz vaqtni ifodalaydi) ma'lum bir T to'plamdagi vaqt.

KBO'PO jarayonlarni boshqaruv tizimini ishlab chiqish belgilangan sifat darajasidagi mahsulotni olish uchun lokal uchastkalarini tanlash, modellashtirish masalasini joriy etish, optimal boshqaruv algoritmini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish samaradorligini va ishonchliligini oshirish, mahsulot sifatini oshirish, korxonada quvvatidan samarali foydalanish, boshqaruv vosita va usullarini takomillashtirishni talab etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi «**Ko'p bosqichli texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini shakllantirish algoritmi**» nomli bobida ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish tizimi tamoyillari shakllantirilgan, portlandsement mahsulotlar xarakteristikalarini va xossalari tarqalish xarakteri aniqlangan, texnologik jarayonlar parametrlari klassifikatsiyalangan.

Matematik modellarni adaptatsiyalashning turlicha usul va algoritmlari mavjud bo'lib, qo'llash ko'lamining turliligi, kerak bo'lgan ma'lumotlar miqdori, moslashish tezligi, kompyuter xotirasi va boshqa xususiyatlari bilan farqlanishi mumkin. Turli

boshqaruv tizimlarida natijaviy ko'rsatkichlar turlicha bo'lishi mumkin, shuning uchun umumiy algoritm sifati mezonini va unga muvofiq adaptatsiya algoritmini ko'rsatish qiyin. Adaptatsiya algoritmining sifat mezoni sifatida statsionar va nostatsionar jarayonlar uchun jarayon chiquvchi ko'rsatkichlari ko'paytmasi o'rta chetlanish xatoligini minimumga keltirish qaraladi.

$$Q(a) = M\{q^2\} = M\{(y - f(x, a))^2\} \rightarrow \min, \quad (1)$$

bu yerda $Q(a)$ obyekt chiquvchisi va model parametrlariga bog'liq holda bir biriga mos kelmaslik darajasini ifodalaydi; $R_k - k$ - yevklid o'lchovli a^* vektor maydoni. Modelning to'g'ri tuzilmasi tanlanganda f funksiya bog'lanishi (1) nolga teng, ya'ni model obyektga adekvat bo'ladi.

Ko'p hollarda matematik model koeffisientlarini o'zgartirish quyidagi rekkurent munosabatlarning biri orqali amalga oshiriladi:

$$a_{j,N+1}^* = a_{j,N}^* + \gamma_n \left(\sum_{i=1}^n a_{i,N+1} x_{i,N+1} - \sum_{i=1}^n a_{i,N+1}^* x_{i,N+1} \right) x_{i,N+1}, \quad (2)$$

$$a_{j,N+1}^* = a_{j,N}^* + \frac{\sum_{i=1}^n a_{i,N+1} x_{i,N+1} - \sum_{i=1}^n a_{i,N+1}^* x_{i,N+1}}{\gamma_n + \sum_{i=1}^n a_{i,N+1}^2 x_{i,N+1}^2} \cdot x_{i,N+1}, \quad (3)$$

bu yerda N - iteratsiyaga mos raqami; $x_{i,N+1}$ - $N+1$ - iteratsiya qadamidagi kiruvchi parametr qiymati; $a_{i,N+1}^*$ - $N+1$ iteratsiya qadamidagi matematik model koeffisientlari qiymati; i - kirish raqami; J_r - salbiy ta'sirni anglatuvchi ma'lum bir musbat son x_i qiymati erkin a_0 hadni hisoblashda birga teng deb qabul qilinadi. J_r - parametr qiymati dispersiyaning qoldig'ini minimallashtirish shartiga binoan avvaldan olingan x va y massivlari tahlilidan olinadi. Umuman olganda J quyidagicha aniqlanadi:

(2) algoritm uchun

$$\gamma = \frac{1}{m},$$

(3) uchun


$$\gamma = \sum_{i=1}^m D_{xi},$$

bu yerda D - dispersiya belgisi, m - kiruvchi o'zgaruvchilar soni.

Ko'pchilik hollarda KBO'PO nochizikli tenglamalar (3) orqali ifodalanadi. Bunday hollarda (1) tenglama koeffisientlarini to'g'ridan to'g'ri (2), (3) adaptatsiya algoritmini qo'llab amalga oshirish mumkin emas. Shuning uchun nochizikli (2) ko'rinishdagi matematik model koeffisientlarini o'zgartirish uchun uni chizikli holga keltirish lozim

$$y = a_0 + \sum_{i=1}^m a_i x_i.$$

Adaptatsiya algoritmidagi har vaqt jarayondan chiquvchi va modelda hisoblangan chiquvchi parametrlar solishtirib boriladi, bunda model operatori mos parametrlarini tanlash hisobiga chiquvchilarning kvadratik chetlanishi minimallashtiriladi (2-rasm.).



2-rasm. KBO'PO matematik modelini adaptatsiyalash sxemasi.


Ushbu holatda doimo model obyektga moslashtirib boriladi, chunki har bir kiruvchi o'zgarishga bo'lgan farq minimal bo'ladi. Identifikatorli adaptiv boshqaruv tizimini ishlab chiqish tamoyili obyekt boshqarishiga bo'ladigan parametrik salbiy ta'sirlarni bartaraf etishga asoslanadi. Identifikator obyekt parametrlarining o'zgarishini me'yordagidan chetlanishini ko'rsatuvchi datchik hisoblanadi.

Adaptiv funksiyalarni boshqaruvchi obyekt xarakteristikalarini yoki joriy parametr qiymatlarini identifikatsiyalashga asoslangan boshqaruv tizimlarini yaratish orqali tizim parametrlarini o'zgartirishga erishiladi. Bu yerda asosiy muammo mumkin qadar yuqori tezlikda va qisqa vaqt ichida real jarayonga yaqin identifikatsiyani amalga oshirish hisoblanadi. Oddiy boshqaruv tizimlarida bunga tizim parametrlarini va xarakteristikalarini nazorat qilish orqali erishiladi. Odatda adaptiv tizimlarda identifikatsiyalash bir yoki ikkita parametrlarni nazorat qilish bilan chegaralanadi va zarur o'zgaruvchilarni to'g'ridan-to'g'ri o'lchash yoki hisoblash amaliga asoslanadi. Joriy parametr va o'zgaruvchilarni o'lchash mumkin bo'lmaganda adaptiv tizimlarda moslashuvchan modellardan foydalanish rivojlanib bordi. Identifikatsiyalashning sifat ko'rsatkichi ayrim baholash funksiyalarining ekstrimumga erishishi bilan baholanishi mumkin. Sifat ko'rsatkichlarini minimumlashtirish jarayoni model parametrlarini o'zgartirish yoki biron-bir adaptiv blokning qo'shimcha adaptivlashtirish signallari kiritilishi bilan bog'liq. Adaptiv identifikatsiyalash algoritmining asosiy qismi bo'lib, sifat funksiyasini hisoblash jarayoni hisoblanadi. Boshqa hisoblash jarayonlari boshqaruvga bog'liq bo'lib, hisoblashlar natijasida boshqaruv tizimi parametrlari o'zgaradi yoki adaptiv identifikatsiyalashdan olingan ma'lumot asosida tizim chiqishidagi qo'shimcha adaptivlashtirish signallari shakllanadi. Shunday qilib, identifikatsiyalangan adaptiv tizimlarda ikkita identifikatsiya va boshqaruv bo'yicha adaptatsiya jarayoni mavjud. Moslashtirilayotgan model blok kabi

identifikatsiyalashgan obyekt bilan turlicha moslashishi mumkin. Xususan, parallel, ketma-ket va aralash. Bundan tashqari model obyektning ma'lum bir qismiga tegishli bo'lishi mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi «**Portlandsement ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish algoritmlari**» nomli bobida sement klinkerlarini kuydirish va quritish jarayonlarini modellashtirish usullari tadqiq etilgan. Jarayonlarni ifodalovchi parametrlar majmuasi tahlil etilib, ularning tarkibidan ustuvorlari tanlab olingan hamda sement klinkerlarini kuydirish va quritish jarayonlari modellari ishlab chiqilgan.

Pechning ichida ro'y beradigan birgina issiqlik jarayoni bo'yicha quyidagilarni kuzatish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Klinkerga quruq usulda ishlov berishning funksional sxemasi.

1-tutun chiqindisi, 2-dekarbonizator, 3-dekarbonizator darajasi, 4-ikkilamchi havo, 5-uchinchi havo, 6-xom ashyo harorati, 7-yoqilg'i quyish moslamasi, 8-gazning chiqish harorati

- Yoqilg'i (gaz, suyuq, qattiq) ning yonishi natijasida harorat ko'tarilib pech ichining turli uchastkalari bo'ylab gazlarning harakati va bosimini yuzaga kelishi;
- Pech ichidagi issiqlik haroratini pech sirt qobig'i tomonidan yutilishi va tashqi atmosferaga uzatilib yo'qotilishi;
- Qayta ishlanayotgan xom ashyo massasi tomonidan issiqlikni yutilishi va qaytarilish jarayonlari;
- Kimyoviy reaksiya va boshqa ta'sirlar natijasida issiqlikni paydo bo'lishi yoki yutilishi.

Suvdan foydalanishga qarab, ishlab chiqarish usullari quruq, ho'l, kombinirlangan (yarim quruq) usullarga bo'linadi.

Pechning *i*-chi maydoni uchun gaz tarkibiy qismining harorat o'zgarishi qo'yidagi issiqlik balans tenglamasi bilan ifodalanishi mumkin:

$$c_p G_i^* T_i^g = c_p (G_i^* - G_{i+1}^*) \cdot T_{i+1}^z - P_i^G - Q_i^0 - Q_i^m, \quad (4)$$

bu yerda, c_p - gaz issiqligining solishtirma issiqligi, $T_i^g, i = \overline{1, N}$ -gaz aralashmasining i -chi maydondagi harorati,

$$G_i^* = G_0 + G_i^G,$$

G_0 - o'choq ichidagi havo sarfi, G_i^* -berilayotgan havo oqimi sarfi, G_i^G - tutun gazlarining sarfi, N -maydonlar soni.

R^G -maydondagi o'choqlar.

$$G_i^G = \frac{P_i^G}{Q_G \chi},$$

Q_G - gazning yonish issiqligi, χ -gaz va havoning stexiometrik nisbati.

Tenglamaning (4) chap qismi i - va $(i+1)$ -maydonlarining chegarasi orqali o'tkaziladigan issiqlik oqimini taqdim etadi, o'ng qismi esa quyidagi shartlar bilan taqdim etiladi:

Birinchi qism i - va $(i+1)$ -maydonlari orasidagi issiq gazlar orqali uzatiladigan issiqlik oqimini anglatadi.

Ikkinchi qism – bu maydondagi gaz o'chog'ining issiqlik kuchi (tabiiyki, $P_i^G = 0$ maydonida o'choqlar bo'lmasa).

O'ng tarafdagi uchinchi qism atrof-muhitga issiqlik yo'qotishidir:

$$Q_i^0 = K_i^0 S_i \cdot (T_i^z - T_0),$$

bu yerda, T_0 - tashqi havo harorati, T_i^z – issiq gazlarning harorati, S_i – o'rab turgan yuzaning umumiy maydoni, K_i^0 – issiqlik uzatish koeffisienti.

O'ng tarafdagi to'rtinchi qism – bu materialga o'tkazilgan issiqlik miqdori:

$$Q_i^* = \frac{c_p M_i \cdot (T_i^m - T_{i-1}^m)}{\Delta t},$$

bu yerda T_i^m - i - maydondagi materialning harorati, c_p – materialning solishtirma issiqlik sig'imi, M_i – i - maydondagi materialning massasi, Δt – i - maydonning o'tish vaqti.

Materialning harorat maydoni ichki issiqlik manbalari bo'lmagan tizim uchun barqaror bo'lmagan issiqlik o'tkazuvchanligining klassik tenglamasi bilan aniqlanadi:

$$c_p \rho_q \frac{\partial T_i^q}{\partial t} = \lambda_q \left(\frac{\partial^2 T_i^q}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 T_i^q}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 T_i^q}{\partial z^2} \right), \quad (5)$$

bu yerda, c_p, ρ_q, λ_q —ma’lum bir materialning issiqlik sig‘imi, zichlik, issiqlik o‘tkazuvchanligi ko‘rsatkichlari.

Dastlabki shartlar sifatida, materialning harorati $i-1$ -maydondan chiqishda olishimiz mumkin:

$$T_i^q(0) = T_{i-1}^q(\Delta t), \quad (6)$$

Chegara shartlari:

$$\begin{aligned} \alpha_i(T_i^q - T_i^g \Big|_{x=0, x=hx}) &= \lambda_q \frac{\partial T_i^g}{\partial x} \Big|_{x=0, x=hx}, \\ \alpha_i(T_i^q - T_i^g \Big|_{y=0, y=hy}) &= \lambda_q \frac{\partial T_i^g}{\partial y} \Big|_{y=0, y=hy}, \\ \alpha_i(T_i^q - T_i^g \Big|_{z=0, z=hz}) &= \lambda_q \frac{\partial T_i^g}{\partial z} \Big|_{z=0, z=hz}, \end{aligned} \quad (7)$$

bu yerda hx, hy, hz — mos keladigan yo‘nalishda x, y, z koordinatalar bo‘yicha qizdirilgan materialning qalinligi.

Asosan, $i+1$ - maydondagi harorat orqali i — chi maydondagi termodinamik holatni aks ettiruvchi (4) tenglama aslida N differensial tenglamalar tizimidir. Tenglama (4) va (5) larni chegara shartlari (7) va berilgan boshlang‘ich shartlardan (6) foydalanib, ketma-ket yaqinlashish usuli bilan yechish tavsiya etiladi.

Jarayonlarni optimallashtirish odatda avvaldan tanlab olingan optimallik mezoni bo‘yicha amalga oshiriladi. Bunday mezonlar sifatida texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar (mahsulot tannarxi, sof foyda, ish unumdorligi va b.) yoki texnologik ko‘rsatkichlar (mahsulotni chiqish foizi, uning sifat ko‘rsatkichlari va nosozliklar) tanlanishi mumkin.

Qurilmalarni belgilangan ish unumdorligi va tayyor maxsulot sifatiga ko‘rsatilgan chegaraviy talablarni hisobga olib optimallik mezoni umumiy holda, quyidagi funksiya ko‘rinishida ifodalanadi.

$$R = f(G, K_x, E_x, K_s), \quad (8)$$

bu yerda G -qurilmaning ish unumdorligi yoki vaqt birligi ichida qurilma yordamida ishlab chiqarilayotgan mahsulot xajmi; K_x -ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan moliyaviy harajatlar; E_x -jarayonni amalga oshirish vaqtidagi ekspluatatsiya harajatlari; K_s - tayyor maxsulotni sifat ko‘rsatkichlari, ishlab chiqarishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari ko‘p jihatdan K_s qiymatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ko‘p hollarda optimallik mezoni sifatida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi S tanlanadi, uning qiymati ishlab chiqarish kalkulyatsiyasi bandlarida keltirilgan xarajatlar yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Jarayonlarni optimallashtirish bo‘yicha tadqiqotlar odatda ularning matematik modellari asosida amalga oshiriladi. Model bazasida optimallik mezonining maqsad funksiyasi shakllantiriladi va optimallashtirish uslublaridan biri bo‘yicha jarayonning asosiy parametrlarini eng maqbul qiymatlari yoki ular orasidagi bog‘liqliklar aniqlanadi. Texnologik jarayonlar amalga oshiriladigan optimal sharoitlar kompromiss (qarama-qarshi toifadagi) masalalarni

yechish tufayli aniqlanadi. Ushbu masalalar mohiyatiga ko‘ra, optimallashtirilayotgan kattalikni o‘zgarishi bilan optimallik k mezonining ayrim tarkibiy parametrlari yaxshilanadi, boshqa ko‘rsatkichlar esa - aksincha.

Texnologik jarayonni optimallashtirish protsedurasi uning matematik modelidan foydalanib amalga oshiriladi. Bunda optimal shart-sharoitlar dastlab jarayonning matematik modelida aniqlanadi, so‘ngra ishlab chiqarish uskunalarda tekshiriladi. Maqsad funksiyasini (R) asosiy texnik-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari orqali shakllantirilgan umumiy ko‘rinishi (8) ifoda yordamida tavsiflanadi. Bu ifoda optimallik mezonining umumiy ko‘rinishidir. Konkret holatda, maqsad funksiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$R = f(x_1, x_2, \dots, x_j),$$

bu yerda x_1, x_2, \dots, x_j – jarayonning asosiy parametrlari; $j = 1, 2, \dots, n$. Alohida texnologik parametrlarga x_j , umumiy holda, quyidagi tenglik

$$U_j(x_1, x_2, \dots, x_n) = 0$$


va tengsizlik

$$U_j(x_1, x_2, \dots, x_n) \leq 0$$

ko‘rinishidagi cheklamalar belgilangan bo‘lishi mumkin. Agar maqsad funksiyasining analitik ifodasi ma‘lum va aytarlik darajada murakkab va noma‘lum o‘zgaruvchilar soni (m) ko‘p bo‘lmasa, bu vaqtda optimallashtirish masalasini yechish uchun analitik usullar (funksiyani klassik tahlil qilish usuli yoki Lagranj ko‘paytmalari usuli) ni qo‘llash mumkin. Agar jarayonning matematik modeli chiziqli tenglamalar orqali ifodalangan bo‘lsa, u holda chiziqli dasturlash usuli qo‘llaniladi. Maqsad funksiyasi aniq bir ko‘rinishda ifodalanmagan bo‘lsa, unda ba‘zi bir qiyinchiliklar vujudga keladi. Parametrlarga ko‘rsatilgan cheklamalar alohida o‘zgaruvchilarni (x_j) murakkab funksiyasi ko‘rinishida berilgan bo‘lsa, unda optimal qiymatlarni hisoblab topish ancha qiyinlashadi va maxsus hisoblash usullarini qo‘llashga to‘g‘ri keladi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi «**Portlandsement va silikat materiallarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini adaptiv boshqarish**» nomli bobida aylanma pechda klinker kuydirish jarayonlarini adaptiv boshqarish algoritmi boshqaruvning har bir qadamida model parametrlarini joriy ma‘lumotlar asosida kechikishlarni inobatga olib model parametrlarini o‘zgartirishga so‘ngra optimallashtirishning lokal mezonlari asosida boshqaruv ta’sirlarini ko‘rsatishga asoslangan.

Aylanma pech jarayonlar xususiyati turli maydonlarda kuydirilayotgan materialning oqimi xususiyatlariga ko‘ra quyidagi maydonlarga bo‘linadi: quritish, qizdirish, kalsiyashtirish, ekzotermik reaksiya, pishirish va sovutish. Aylanma pechning umumiy boshqaruv masalasi pech kesimi bo‘yicha optimal issiqlik rejimini ta‘minlash, nishablik burchagini moslashtirish va ish jarayonining barcha burchaklarida silindr aylanish tezligini muvofiqlashtirishdan iborat. Aylanma pechda klinkerni kuydirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy nazorat qilinuvchi kiruvchi parametrlar:



4-rasm. Klinkerni kuydiruvchi aylanma pechning asosiy parametrlari

Bu yerda $z_1(t)$ – qorishmaning namligi, $z_2(t)$ – qorishmaning to‘yinganlik koeffisienti, $z_3(t)$ – harorat; $z_4(t)$ – bosh uzatuvchini yuklanganligi; $z_5(t)$ – yonilg‘ini namlanganligi; $z_6(t)$ –zarrachalarning maydalanganligi; $z_7(t)$ – uchuvchi yonilg‘i; $z_8(t)$ – Fe_2O_3 aralashmasi; $z_9(t)$ – R_2O aralashmasi; $z_{10}(t)$ – pech aylanma havosining harorati; $z_{11}(t)$ – mahsulot harorati; $u_1(t)$ – pechdagi qorishmani sarfi; $u_2(t)$ –pechning sovuq boshida kesilishi. Nazorat qilinuvchi kiruvchi parametrlar: $x_1(t)$ – CaO bo‘yicha klinkerning sifati; $x_2(t)$ – FeO bo‘yicha klinkerning sifati. Klinker sifati har soatda bir marta aylanma pech kesimidan olinayotgan materialning laboratoriya tahliliga ko‘ra aniqlanadi. Bu oraliq kelgusida kechikishlarni inobatga olgan holda diskret modellarni yaratishda inobatga olinadi. Klinker sifat ko‘rsatkichini CaO va FeO ($x_1(t), x_2(t)$) belgilaydi.

Olingan barcha modellar bo‘yicha sement yoki klinkerni 28 kunlik aktivligini bashoratlash mumkin. Lekin


$$V = 676,63 - 0,07x_5^p + 1,32x_7^p + 0,62x_8^p - 6,04x_7 - 3,92x_8; \quad (9),$$

$$V = 696,85 - 0,01x_3^p - 0,09x_4^p + 1,72x_7^p - 6,27x_7 - 4,66x_8; \quad (10),$$

$$V = 705,30 + 1,71x_7^p + 0,09x_8^p - 0,81x_{12}^p - 6,47x_7 - 4,72x_8; \quad (11)$$

modellarda chetlanish yuqori. Shunday qilib, bashoratlash uchun ekspress tahlil yordamida oson o‘lchash mumkin bo‘lgan ma‘lumotlardan foydalanish mumkin. Tashqi ko‘rinish bo‘yicha bir xil tipdagi (9),(10),(11) modellarda koeffisientlarning farqi sezilarli bo‘lmaydi.

Klinker kuydirish jarayonini adaptiv boshqarish algoritmi 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Klinker kuydirish jarayonini adaptiv boshqarish tizimi

Chiziqli model nisbatan tugallangan, chunki seleksiyaning ikkinchi qadamidayoq aniqlikka erishiladi va modelga boshqa hadlarni kiritish talab etilmaydi. Sementning 28 kunlik aktivligini bashoratlash uchun uch-to'rtta parametr yetarli. Bu shundan dalolat beradiki, modellashtirish uchun zarur bo'lgan o'lchovlar ro'yxati 5-6 marta qisqartirilishi mumkin.

Sement markasini bashoratlashda barcha modellar qoniqarli natijalarni beradi. Eng yaxshi 9-10 birligidagi aniqlikni ± 19 birlik farqda ta'minlovchi model:

$$V = 536,37 + 2,45x_1 - 0,04x_7 - 4,13x_8 + 40,05x_9; \quad (12)$$

$$V = 544,65 + 2,11x_1 - 0,04x_7 - 4,14x_8 + 39,64x_9; \quad (13)$$

$$V = 542,86 + 2,47x_1 - 0,04x_7 - 4,23x_8 + 38,82x_9; \quad (14)$$

hisoblandi. Kuzatuvlarning 20 dan oshishida model xususiyatlari sezilarsiz o'zgaradi. Bu holat (12)-(14)-modellarda turli statistik kattaliklarda yaqqol ifodalangan. Ularning barcha koeffitsientlari va ozod hadi bir biridan kam farq qiladi, bunda parametrlar soni bir xil bo'ladi. O'z navbatida model yaratish uchun 20-25 ta statistik ma'lumot yetarli hisoblanadi.

Boshqaruv jarayonida laboratoriya va boshqaruv tizimini o'zaro bog'liq holda kechadi. Boshqaruv tizimida o'lchov qurilmalaridan kelayotgan barcha ma'lumotlar uzluksiz qayd etilib boriladi va ma'lumotlar bazasida saqlanadi. Barcha ma'lumotlar asosida ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarish grafigini qurish mumkin.

XULOSA

«Ko‘p bosqichli o‘zgaruvchan parametrli obektlarni adaptiv boshqarish algoritmlari» mavzusidagi dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ko‘p bosqichli o‘zgaruvchan parametrli obektlarni an’anaviy boshqaruv tizimi, texnologik xususiyatlari, fizik va kimyoviy o‘zgarishlarini tizimli tahlillash asosida portlandsement va silikat materiallarini kuydirish jarayonini adaptiv boshqaruv tizimini takomillashtirish usuli yoqilg‘i miqdorini tejash va pechdagi harorat rejimini muvofiqlashtirish imkonini berdi.

2. Ko‘p bosqichli o‘zgaruvchan parametrli obektlarni boshqarish va dekompozitsiyalash tamoyillari, talablarini shakllantirish va mahsulot ko‘rsatkichlarini belgilovchi faktorlarni tasniflash asosida ishlab chiqilgan boshqarish tuzilmasi xom ashyoning fizik va kimyoviy tarkibiga muvofiq yoqilg‘i sarfini rejalashtirish va boshqarish imkonini berdi.

3. Ko‘p bosqichli o‘zgaruvchan parametrli obektlarda portlandsement materiallarini kuydirish jarayonini informativ parametrlarini tanlash asosida ishlab chiqilgan optimallashtirishning adaptiv modellari va algoritmlari texnologik jarayonlarning optimal rejimini (pech harorati, issiqlik uzatish rejimi, kukunlar harakati tezligi, yoqilg‘i sarfi) aniqlash imkonini berdi.

4. Ko‘p bosqichli o‘zgaruvchan parametrli obektlarda portlandsement va silikat materiallarini kuydirish jarayonida pech harorati rejimini adaptiv boshqarish algoritmlari va dasturiy majmuasi pechning harorat rejimini hisoblash algoritmlari ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish va sifatsiz yaroqsiz mahsulotlar miqdorini kamaytirish imkonini berdi.

5. Ko‘p bosqichli o‘zgaruvchan parametrli obektlarda portlandsement klinkerini ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida adaptiv boshqarish usullarini takomillashtirish, adaptiv modellari va algoritmlari “QIZILQUMSEMENT” AJ korxonasida sement mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik jarayoniga joriy etilgan. Natijada portlandsement mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida texnik-iqtisodiy zararlar miqdori qisqarishiga, ya’ni yoqilg‘i va elektr energiya sarf-harajatlarining iqtisodiy samaradorligi 147,8 mln.so‘m miqdorida tejamkorlikga erishish imkonini beradi.

6. Xom ashyolardan portlandsement va silikat materiallarini olishda kuydirish va quritish texnologik jarayonlarini adaptiv boshqarish algoritmlari va dasturiy majmuasi “Turon eco cement group” AJ korxonasida sement mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik jarayoniga joriy etilgan 2021 yil 15 sentabr dalolatnomasi. Natijada portlandsement mahsulotlarni olishda qayta ishlash, axborot resurslari oqimi va boshqaruv tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish ishlab chiqarishda yoqilg‘i va elektr energiya sarf harajatlarining 1,13 barobar tejamkorligiga, iqtisodiy samaradorligi 57,3 mln.so‘m miqdoridagi tejamkorligiga erishish imkonini beradi.

7. Portlandsement klinkerini ishlab chiqarish jarayonini adaptiv modellari, algoritmlari va boshqaruv tizimini takomillashtirish usullarini xom ashyolardan portlandsement va silikat materiallarini olishda kuydirish va sovutish texnologik jarayonlariga joriy etganligi to‘g‘risidagi “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2022 yil 16 martdagi ma’lumotnomasi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.22/01.02.2022.Т.144.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТУРИНСКОМ ПОЛИТЕХНИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ В ГОРОДЕ ТАШКЕНТЕ**

ДЖИЗАКСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

АЛИШЕВ ШЕРКУЗИ АБДУМАННОНОВИЧ

**АЛГОРИТМЫ АДАПТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ
МНОГОСТАДИЙНЫМИ ОБЪЕКТАМИ С ПЕРЕМЕННЫМИ
ПАРАМЕТРАМИ**

**05.01.08–Автоматизация и управление технологическими процессами и
производствами**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2023

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Производство стройматериалов является одним из важных направлений динамичного развития мировой экономики, последнее время особое внимание уделяется автоматизации технологических процессов и производств, разработке математических моделей, алгоритмов и систем управления многостадийными процессами с переменными параметрами, к которым относится, разработка продуктов из портландцемента различаются по типу и свойствам сырья разного состава, посредством перемешивания сырья в шахтах или барабанных вращающихся печах, особое внимание уделяется автоматизации управления технологическими процессами: сушки, нагрева, декорбанизации, обжига и охлаждения, методам определения оптимального температурного режима и совершенствованию систем управления движением сырого порошка в печи. «По данным Всемирной ассоциации цементной промышленности, мировой спрос на цементную продукцию в 2020 году составил 3,78 миллиарда тонн, к 2021 году этот показатель достиг 4,03 миллиарда тонн, т.е. вырос на 5,2%»¹. Спрос в этой сфере растет в развитых странах, включая Китай, Северную Америку, Индию, Западную Европу и др. Поэтому модернизация производственных предприятий, разработка методов автоматизации являются актуальными.

В мире ведется разработка оптимальных алгоритмов управления технологической последовательностью и температурой печи в соответствии с физическими свойствами и химическим составом сырья при производстве ресурсосберегающих портландцементных изделий, проводятся научные исследования, направленные на автоматизацию технологических процессов. В связи с этим очень важным является научное обоснование разработки методов определения температуры печи в процессах сушки, обжига и охлаждения смеси с учетом особенностей, требований, принципов и критериев технологических процессов производства многостадийных цементных изделий при разнообразии сырья, а также модернизация технологических процессов, переработки портландцемента и силикатных материалов различного состава и свойств, контроль изменяемых параметров объектов, определение соответствующих оптимальных температурных режимов при перемещении сырья из одной температурной зоны печи в другую при сушке и обжиге смесей.

В нашей Республике проводятся широкомасштабные мероприятия по разработке методов управления процессами сушки и сжигания смесей, модернизации технологических процессов переработки портландцемента и силикатных материалов различного состава и свойств на объектах с переменными параметрами, предназначенных для различных целей, управлению определением и обеспечению соответствующих оптимальных температурных показателей в процессах перемещения сырья по печи. При выполнении этих задач, в том числе разработка автоматизированных конструкций для производства портландцемента и других энергоемких строительных материалов

¹<http://projectreporter.co.in/prcontentdetail.aspx?Id=5242>

на объектах с переменными параметрами, моделей многоступенчатых процессов сушки и обжига, методов определения температуры печи в процессе эксплуатации. последовательное перемещение сырья; Одним из важных вопросов является создание комплекса специальных математических и программных средств, направленных на совершенствование методов производства, управления процессами.

Данное диссертационное исследование в определенной степени послужит реализации задач, поставленных Президентом Республики Узбекистан в постановлениях «О мерах по коренному совершенствованию и комплексному развитию отрасли строительных материалов» и ПП №-4335 от 23 мая 2019 г. «О дополнительных мерах по ускоренному развитию отрасли строительных материалов» и всех нормативно-правовых актах, связанных с этой деятельностью.

